

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

***60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish***  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Nukus-2023**



## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....</i>	4
1.1.	<i>Qo'llanish sohasi .....</i>	4
1.1.1.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....</i>	4
1.1.2.	<i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....</i>	4
1.2.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</i>	4
1.2.1.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	4
1.2.3.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</i>	7
2.1.	<i>Umumiy kompetensiyalar .....</i>	7
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar .....</i>	8
2.3.	<i>Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</i>	8
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya .....</i>	9
2.3.2.	<i>60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar .....</i>	9
2.3.3.	<i>60810600 - Yer kadastrı va yerdan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi .....</i>	9
	<i>Bibliografik ma'lumotlar .....</i>	11
	<i>Kelishuv varag'i .....</i>	12

## **1. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

*60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60810600 - Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi**

Malaka talabi *60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

*60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishi* – “Qishloq xo'jaligi” ta'lim sohasiga oid yo'nalishi bo'lib, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari, kadastr va yerdan foydalanish sohasi bo'yicha ilmiy loyihalash va tadqiqot muassasalari, yerdan foydalanish, yer egaliklari, yerdan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish, ko'chmas mulk obyektlari va shu jumladan shaharlar va aholi yashash punktlari chegarasidagi yer uchastkalari, ularning huquqiy holati davlat ro'yhatiga olinishi, baholanishi, foydalanishini nazorat qilish, kadastr axborot tizimlari loyiha – texnik hujjatlari kabi kasbiy faoliyatining vositalari, usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

#### **1.2.2. 60810600 - Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- yerdan foydalanuvchilar va yer egaliklarini tashkil etish;

- yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish;

- yerlarning miqdor va sifat hisobini yuritish;
- tuproq bonitirovkasi va yerlarning normativ-me'yoriy qiymatini aniqlash;
- yerdan foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazorati;
- yer kadastraxborot tizimini yaratish va yuritish;
- yer ajratish, hududni tashkil qilish va kompleks rivojlantirish bilan bog'liq loyiha-texnik hujjatlarni tayyorlash jarayonlari;
- davlat boshqaruvi organlari, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni echish.

60810600 - *Yer kadastr va yerdan foydalanish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-konstruktorlik faoliyati;
- ishlab chiqarish va texnologik faoliyati;

### **1.2.4. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- yer kadastri va yerdan foydalanishni hujjatlashtirish jarayonlari qo'llaniladigan ishlab chiqarishda, qishloq xo'jaligida, qo'riqxonalarda, dehqonchilik xo'jaliklarida va kasbiy faoliyatiga taaluqli tashkilot va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanish;
- ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minotlar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarini amaliyotda keng qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy - tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy - uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy - tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy - amaliy seminarlar, konferensyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- yer kadastri va yerdan foydalanish sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:**

- yerlarning holatini o'rganish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish (sifatni baholash, inventarizatsiya qilish, tuproq, geobotanik va boshqa tadqiqotlar va tadqiqotlar o'tkazish, yerlarning holati bo'yicha tematik xaritalar va atlalarni tuzish), yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni rejalashtirish va tashkil etish, joylashuvni tavsiflash va (yoki) yer tuzish obyektlarining chegaralarini belgilash;
- fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan oqilona foydalanishni tashkil etish;
- hududda aholi punktlarining chegaralarini, hududiy zonalarining chegaralarini, hududlardan foydalanishning maxsus shartlari bo'lgan zonalarining chegaralarini, ushbu hududlarning ayrim qismlarining chegaralarini belgilash bo'yicha yer tuzish ishlarini olib borish, shuningdek ushbu yer tuzish obyektlarining xaritalarini (rejalarini) muvofiqlashtirish va tayyorlash;
- aholi punktlari va yer uchastkalari hududlarida suv obyektlarining chegaralarini belgilash;
- suv obyektlarining qirg'oq chiziqlari va suvni muhofaza qilish zonalarini o'rnatish;
- yerni boshqarish loyihalari va sxemalarini, yerlardan foydalanish va himoya qilish sxemalarini, hududiy rejalashtirish sxemalarini ishlab chiqish, hududlarni rejalashtirish loyihalari, hududlarni chegaralash proektsiyalari, yer uchastkalarining chegara rejalarini tuzish;

- maxsus yer fondlarini, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni va an'anaviy tabiatdan foydalanish hududlarini shakllantirish;
- yer tuzish va kadastrlar, hududiy rejalashtirish, ishlab chiqilayotgan loyihalar va texnik hujjatlarning standartlar, texnik shartlar va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqligini nazorat qilish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ishlab chiqarish va texnologik faoliyat:**

- davlat ko'chmas mulk kadastrini yuritish;
- yer kadastr va ko'chmas mulk davlat kadastr bo'yicha loyiha-qidiruv va topografik-geodeziya ishlarini amalga oshirish;
- asbob-uskunalar va asbob - uskunalarning texnik holatini tekshirish;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq yer va boshqa ko'chmas mulkdan foydalanish, yer va atrof-muhitni muhofaza qilish ustidan nazoratni o'tkazish;
- tematik xaritalar tuzish va atlaslarning holati va yerdan foydalanish;
- joylashuv tavsifi va (yoki) yer uchastkalarida obyektlarning chegaralarini belgilash yer tuzish;
- yer kadastr va yerdan foydalanishda axborot texnologiyalari, modellashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- yerlarni va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini baholash;
- yer kadastr va yerdan foydalanishda loyihalar va sxemalarini amalga oshirish bo'yicha ishlar;
- yer va ko'chmas mulk monitoringini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- yer kadastri va yerdan foydalanish tarmoqlar talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etishni bilish;
- yer monitoringini yuritish nazaryasi va texnologiyasi, ular to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, yer monitoringining tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;
- yer monitoringi tizimi, amaliyotda qo'llanib kelinayotgan yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish;
- yer egaliklari va yerdan foydalanishlar turlarini, ularni tashkiliy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarni tanlash;
- geodeziya, kartografiya va kadastr ishlarini samarali yuritish maqsadida yer monitoringi ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarni;
- yer monitoringini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlashi;
- agrar ishlab chiqarishda yer resurslarni iqtisodiy samaradorligi, intensivlashtirish, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish haqida tasavvur hosil qilishi;
- xo'jalikda tuziladigan yer tuzish loyihalarida yer resurslaridan foydalanishni iqtisodiy asoslash, bozor va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning xususiyatlari, agrar ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish, ixtisoslashtirish va joylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;
- davlat yagona kadastirlari tizimi asoslarni, uning tarkibini va yuritishni bilishi;
- yer resurslarni boshqarish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni taminlashi;
- erroziyaga xavfli hududlarda landshaftli yer tuzish usullarni va ularning qo'llanilishini bilishi va ularda foydalanishni ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqirlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

ishlab chiqarish texnologik amaliyoti - majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv ishi oldi amaliyoti – bitiruv malakaviy ishi uchun dastlabki ma'lumotlarni to'playdi.

**2.3.1. Kvalifikatsiya: Yer tuzuvchi.**

**2.3.2. 60810600-Yer kadastr va yerdan foydalanish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5100	170
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

**2.3.3. 60810600 - Yer kadastr va yerdan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyati turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5100</b>	<b>170</b>	
1.01	XJTNB1112	Xorijiy til	360	12	1,2
1.02	MATB1112	Oliy matematika	360	12	1,2
1.03	FIZB1105	Fizika	150	5	1
1.04	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.06	O'EYTB1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.09	YTKGB1110	Yer tuzishda kompyuter grafikasi	150	5	1
1.05	JMSB1204	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
1.07	O'ZRTB1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.08	GEOB1205	Geodeziya (1-bo'lim)	150	5	2
1.19	ATJMMB1205	Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish	150	5	2
1.10	LSHAB1304	Landshaftshunoslik asoslari	120	4	3
1.11	GEOB1306	Geodeziya (2-bo'lim)	180	6	3
1.12	TDB1304	Tuproqshunoslik va dehqonchilik	120	4	3
1.13	DKAB1304	Davlat kadastr asoslari	120	4	3
1.14	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.15	KDB1504	Kartografik dizayn	120	4	5
1.16	GTTB1304	Geoaxborot tizimi va texnologiyalari	120	4	3
1.17	FYOZB1404	Fotogrammetriya va yerni oraliqdan zondlash	120	4	4
1.18	KARB1404	Kartografiya	120	4	4
1.20	YTGIB1404	Yer tuzishda geodezik ishlar	120	4	4
1.21	YRBB1404	Yer resurslarini boshqarish	120	4	4
1.22	MYRB1504	Melioratsiya va yerlarni rekultivatsiyalash	120	4	5
1.23	YRFBB1405	Yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash	150	5	4



T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyati turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1,24	O'TAB1504	O'rmon tuzish asoslari	120	4	5
1.25	YHB1510	Yer huquqi	300	10	5,6
1.26	YTLB1615	Yer tuzishni loyihalash	450	15	6,7,8
1.27	YKADB1610	Yer kadastri	300	10	6,7
1.28	YTLATB1710	Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi	300	10	7,8
1.29	YEMB1806	Yer monitoringi	180	6	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	3, 4, 5, 6, 7, 8
		<b>Jami</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
	MALAMAL 1224	Malakaviy amaliyotlar	720	24	2, 4, 6, 7, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6	8
		<b>Jami</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kredit, modul, bakalavriatning o'quv reja va o'quv dasturi, profil, o'qib-o'rganish natijalari, malaka talablari, qo'llanish sohasi, o'quv davri, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, ishlab chiqarish va malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, loyihalash, tashkiliy boshqaruv, axborot-tahliliy faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadbirkorlik.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalar hamda kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQILGAN:

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti


Rektor  E. Sh. Toreniyazov

2023 yil « 10 » 07  
M.O'.


KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi direktori  
 Sh. Yakubov


2023 yil «    »  
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi huzuridagi Kadastr  
agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi  
boshqarmasi boshlig'i:  
 I. A. Tleuov


2023 yil « 20 » 07  
M.O'.

MSHJ "UzGIP" instituti Qoraqalpog'iston  
sho'ba korxonasi direktori:  
 M. T. Zaretdinov

2023 yil « 17 » 07  
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi  
Vazirligi tarkibidagi "Uzdavyerloyiha"  
davlat ilmiy loyihalash institutining  
"QR yerloyiha" bo'limi boshlig'i:  
 J. T. Erejepov

2023 yil « 19 » 07  
M.O'.

Toshkent davlat agrar universiteti  
birinchi prorektori  
 S. Ya. Islamov

2023 yil « 09 » 07  
M.O'.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligi Respublika aerogeodeziya  
markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'linmasi direktori:

 J. B. Chimbaev

2023 yil « 17 » 07  
M.O'.

**Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti;  
60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta‘lim yunalishi  
buyicha malaka talablarini va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar,  
turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari  
o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Nukus sh.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori B.S.Mirzayev, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori B.A.Xudoyarov, “MSHJ “UzGIP” instituti Qoraqalpog‘iston sho‘ba korxonasi” direktori M.T.Zaretdinov, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi Vazirligi tarkibidagi “Uzdavyerloyiha” davlat ilmiy loyihalash institutining “QR Yerloyiha” bo‘limi boshlig‘i J.T.Erejepov, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika aerogeodeziya markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘linmasi direktori J.B.Chimbaev bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejası mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

*60810600-Yer kadastrı va yerdan foydalanish ta‘lim yo‘nalishi.*

Malaka talablari xamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘grisida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PD-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamro‘vli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Davlat Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar istemolchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yunalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

«MSHJ “UzGIP” instituti Qoraqalpog‘iston  
sho‘ba korxonasi» direktori



*M.T. Zaretdinov*

M.T.Zaretdinov

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi  
Vazirligi tarkibidagi «Uzdavyerloyiha»  
davlat ilmiy loyihalash institutining  
«QR Yerloyiha» bo‘limi boshlig‘i

*J.T. Erejepov*

J.T.Erejepov

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligi Respublika aerogeodeziya  
markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘linmasi  
direktori



*J.B. Chimbaev*

J.B.Chimbaev